

Xizmatlar sohasi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-mart

Raqamlar:


- 2018 yil yanvar-mart oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi – 1723,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.
- Bozor xizmatlari o'sish surati – 104,5 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 571,5 ming.so'mni tashkil etdi.

Zamonaviy dunyoda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ko'rsatilayotgan bozor xizmatlari turlarining ro'yxati juda xilma-xil bo'lib, bular savdo va transport xizmatlaridan tortib moliyaviy, sug'urta va turli xil vositachilik xizmatlaridan iborat.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida chora-tadbirlarning davom ettirilishi xizmatlar sohasini jadal rivojlanishiga imkon bermoqda. Natijada, viloyatimizda 2018 yil yanvar-mart oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 1723,9 mlrd. so'mni tashkil etdi .

Bozor xizmatlarining eng katta hajmi savdo xizmatlari, transport xizmatlari, moliyaviy xizmatlar, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari va shaxsiy xizmatlarda kuzatilmoqda.


2018 yil yanvar-mart oylarida xizmatlar ishlab chiqarish tarkibi, % da



Xizmatlar tarkibida eng katta ulush - savdo xizmatlari (34,0 %), transport xizmatlari (24,4 %), moliyaviy xizmatlar (11,8 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,7 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (4,1 %) tashkil qildi.

Xizmatlar jamiyat hayotining muhim sohasi bo'lib, hayot darajasini oshirishning asosiy omili hisoblanadi. Bugungi kunda xizmat amaliyotida xizmat faoliyatini tashkillashtirishning o'ziga xos jihatlari va xususiyatlari belgilangan.


Xizmatlar ishlab chiqarish hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm



Xizmatlar sohasida xizmat hajmining oshishi bir qator omillarning ta'siri bilan izohlanadi, jumladan: bozorda yangi turdagi xizmatlarning paydo bo'lishi, masalan: kredit kartalari orqali to'lovlar, Internet savdo, yangi savdo markazlari, mehmonxonalarining tashkil etilishi, ta'lim xizmatlarini kengaytirish, dam olish sohasidagi tanlovning kengayishi shular jumlasidandir.

Ta'kidlash joizki, jismoniy va yuridik shaxslarning xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun xizmatlar sohasini hududlarda muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishini ta'minlamasdan turib respublika iqtisodiyotining yirik tarmog'i sifatida xizmatlar sohasini jadal rivojlantirib bo'lmaydi.

2018 yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, % da



2018 yil yanvar-mart oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari me'morchilik sohasidagi xizmatlar (151,9 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (122,0 %), moliyaviy xizmatlar (116,8 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (116,5 %), ijara xizmatlari (111,3 %) da kuzatildi.


**2018 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha
xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Andijon viloyat	1723,9	104,5
<i>shaharlar:</i>		
Andijon	769,0	108,1
Xonobod	22,9	101,3
<i>tumanlar:</i>		
Andijon	98,4	103,1
Asaka	116,4	102,0
Baliqchi	81,3	101,5
Bo'z	19,7	101,8
Buloqboshi	49,8	101,6
Jalaquduq	63,7	101,9
Izboskan	79,2	101,4
Ulug'nor	16,3	102,2
Marxamat	57,9	101,5
Oltinko'l	59,9	102,3
Paxtaobod	63,7	101,3
Xo'jaobod	39,9	102,0
Shaxrihon	108,4	101,9
Qo'rg'ontepa	77,4	101,6

Hududlar o'rtasida eng katta hajm Andijon shahri (769,0 mlrd.so'm), Asaka (116,4 mlrd.so'm), Shaxrihon (108,4 mlrd.so'm), Andijon (98,4 mlrd.so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Eng kam hajm Ulug'nor (16,3 mlrd.so'm), Bo'z (19,7 mlrd.so'm), tumanlari va Xonobod (22,9 mlrd.so'm) shahrida kuzatilmoqda.


2018 yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, % da



Hududlar bo'yicha xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni Andijon shahri (44,6 %), Asaka 6,8 %), Shaxrihon (6,3 %), Andijon (5,7 %) tumanlari egallaydi.

2018 yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 571,5 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 102,8 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Andijon shahrida 1796,4 ming so'm qayd etilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,1 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga xizmat ko'rsatishning eng past ko'rsatkichi Ulug'nor tumanida kuzatildi 284,5 ming so'm, o'sish sur'ati esa 98,0 % ni tashkil etdi.

Viloyat statistika boshqarmasi
Xizmatlar sohasi statistikasi bo'lim

Ma'sul: A.Usmonov

Tel: 71(230-82-64)

